

Kech kiganida deraza oldiga kelib o'tiraman-da, shu'ladan to'q qizil tus olgan bulutlarning ufqqa cho'kishini tomosha qilaman. Maysalarga shabnam tushib so'lg'in tus olgandek sezaman o'zimni, bug'doy boshqechalari egilgandek boshimni quyi solaman. Shunday paytlarda doimo devorda osig'liq eski skripkani olaman-da, sozlay boshlayman. Bilmayman, qanday qilib bo'lsa-da, sozanda bo'lishni o'z oldimga maqsad qilib qo'yanman. Ovozlar, ohang, kuy hammasi darhol o'z-o'zidan chiqa qoladi. Oxiriga borib nima chalganimni hecham eslolmayman.

Nihoyat, charchagach, skripkani bir chetga olib qo'yaman. Shunda yolg'iz va g'aribligim juda bilinib ketadi. Axir yolg'iz bo'lsam, kim uchun ham chalaman, biror narsa chalishimni iltimos qiluvchi kimsa ham yo'q, chuqr tin olib o'ksigancha kechki salqinda iztirobli o'ylardan forig' bo'lish maqsadida deraza tokchasiga ko'krugimni berib atrofqa boqaman.

Uzoqdagi daryochadan motorli qayiqchaning ovozi eshitiladi, qaylardadir mandolina torlarining kimningdir barmoqlari orasida titrab, ingragan nidosi quloqqa chalinadi. Yon-atrofdan esa echki bolasining "me-e"! deb ma'rashi va uyqusiragan go'dakning entikib yig'lagani eshitiladi. Mana bularning hammasi shahar atrofidagi kechki manzara.

Vaqt ham yarim kechaga yaqinlashib qoldi: ko'chada hech zog' ko'rinnmaydi, ochiq derazalardagi chiroqlar birin-ketin so'nmoqda, asta-sekin esayotgan shabadan chiroylar darpardalar ohista hilpiramoqda.

Uzoqdan ayol kishining yengil qadam tovushi eshitildi. U egilgancha yo'lni kesib o'tdi-da, qo'lida bir dasta oq gul ko'targancha to'g'ri derazam tomon kela boshladi.

Bu ro'paramdag'i uyda istiqomat qiluvchi qo'shnim edi. Uni ko'rinishidan darrov taniyman. Ko'zлari moviy, doim kul rang palto kiyib yuradi, sochlari esa kalta qilib qirqilgan, oyoqlari chiroylar.

Kechki paytlari uni deraza tokchasiga tirsagini tirab turganini yo bo'lmasa ochiq derazam atrofida aylanib yurganini ko'raman. Goh-goh men tarafga diqqat-la nigohini tashlab qo'yadi.

Bugun esa hech kutilmaganda qarshimga kelib to'xtadi-da, moviy ko'zлari-la to'g'ri yuragimga qaramoqchi bo'lgandek, tikilib, nihoyatda mayin ovoz bilan:

Chalasizmi? deya ohista so'radi.

Siz uchunmi? so'radim hayratdan dong qotgancha.

Men uchun ham, o'zingiz uchun ham...

U chalishimni kutib, uchta oq gul ushlagan jajjigina kaftchasin derazam tokchasiga qo'ydi.

Kuy chalishni o'rganyapsizmi?

Yo'q. Butun vujudim bilan eshitishni sevaman.

Nima qilayotganimni o'zim bilmasdum. Skripkani qo'limga oldim-da, telbarcha chala boshladim. Kamon ostidan chiqayotgan sadolar nola qilib, ingrar va faryod chekardi. Faryod chekarkan, mungli ingrar, sho'x avjga chiqqanda esa kulayotgandek tuyulardi. Qo'shnim kuyni skripkadan ko'z umzagan holda jon qulog'i bilan tinglar, qo'lidagi gullar esa titrardi.

Yarim tundagi bu g'aroyib chalishni tugallarkanman, qo'shnim chuqr tin oldi, bu ko'krugining ko'tarilib tushishidan aniq sezilib turardi.

Rahmat! deya ta'zim qildi-da, so'ng guldastasi ichidan oppoq gulni olib derazam tokchasiga qo'ydi-yu, rahmat deyishimni ham kutmayoq g'oyib bo'lidi. Ketayotganda menga nigohini shunday tikdiki, bundan qalbim larzaga keldi.

Gulni qo'limda ancha vaqtgacha aylantirib turdim. Boshqa gullarga qaraganda uning oppoqligi va nihoyatda tozaligi meni g'oyat ajablantirardi. Bugungi ro'y bergen sirdan nima bo'lganiga tushunmay, hamon es-hushimni yig'olmay turardim.

Shu kecha o'zimni odatdan tashqari tetik sezdim. Bir oz orom olish uchun derazani yopmoqchi bo'lganimda, tun oqara boshlagan, daladan to'rg'ayning sayrashi eshitillardi.

Stakandagi nargis gulni xuddi muqaddas narsadek avaylab stol ustiga qo'ydim. Har kuni ertalab ishga ketish oldidan beixtiyor unga qarab qo'yaman. "Bu gulni nega menga hadya qildi ekan?" degan savol hatto xayolimgayam kelmaydi.

Ikkimizning o'rtamizda g'alati aloqa paydo bo'lidi: miq etmay bir-birimiz tomon talpinamiz, gullar orqali bir-birimizga qarab qo'yamiz yo bo'lmasa tabassum in'om etamiz.

Mana, biz ro'parama-ro'para o'tiribmiz, u yo'lning narigi betida mendan bir oz yuqori qavatdagi deraza oldida, men esa - pastda. Bir-birimizga qarab jilmayamiz...

Kulgili biror narsa bo'lmasa-da, ikkimizning nigohimiz bir-birimizga to'qnash kelib qolgudek bo'lsa, beixtiyor o'z-o'zidan og'zimizning tanobi qochadi.

Shu ondayoq uning chehrasi tamoman kishini o'ziga jalb qiluvchi tusga kiradi: iyagini ko'krugiga tiragancha, bir ko'zining qiri bilan tushib turgan soch tutamlari orasidan menga qijo boqadi.

Ba'zan kechqurun uning chelak ko'tarib yo'lakdan quduqqa suvgaga ketayotganini ko'rib qolaman. Tuqli kiygan oyoqlari nihoyatda kelishgan.

Shunda men darpardaning ortiga yashiringancha uzoq vaqt uning ketidan termilib qolaman. Qarayotganimni u na biladi, na ko'radi. Biroq shunga qaramay uning o'nqir-cho'nqir yerlardan boldirini ko'rsatib, ko'zni o'ynatib nazokat bilan qadam tashlashidan ayol ortidan birov kuzatib turganligini sezishini anglayman.

Har kuni kechasiyu kunduzi uni ko'rishni istardim, siyosisi esa sira ko'z oldimdan ketmasdi. Uni derazasi oldida paydo bo'lishini intizorlik-la kutib, derazamning oldiga chiqib o'tiraman. Uzoq vaqt kutaman. Aftidan qo'shnim uyida emasdek ko'rinnadi. Derazalar yopiq. Vaqt yarim tundan oqqanda botinkam va kamzulimni yechib, endi yotmoqchi bo'lib turganimda, nogahon uning shahar tarafdan kelayotganligini ko'rib qoldim.

U ko'chaning narigi chekkasidagi yo'lkada to'g'ri mening derazam qarshisida to'xtadi. Yana qo'lida bir dasta gul, ularni silkitgancha:

Xohlaysizmi?.. dedi.

Bo'lmasam-chi...

Unday bo'lsa keling!

O'zingiz olib kela qoling!

Yo'q, o'zingiz kelishingiz kerak.

Nihoyat, bir moy botinkada, uni ham bo'lsa ipini taqmay, kamzulsiz, quruq nimchada uning oldiga bordim. Chang-tuproq yo'lidan kalovlangancha chopib borardim, chamasi, bu juda kulgili ko'ringan bo'lsa kerak. U meni xaxolab kulgancha kutib olarkan:

Xuddi ot mingan ritsarlardek keldingiz-a, dedi.

Yalangoyoq ritsar deng, dedim uning so'zini to'g'rilab.

This is not registered version of TotalDoc Converter  
Uning o'sasi qanday qilib qo'sha bo'lganiga ko'k novdacha uzatdi-yu, nigohini menga tikdi.

Shunday qaradiki...

Bu qarashda qanday ma'nno bor ekan-a?!

Ko'zлari olam-olam ma'nno-la oltin yallig'idek chaqnardi!

Qaradi-yu, tezda qo'lini uzatgancha qayoqqadir shoshayotgandek yoki hurkkandek zumda ko'zdan g'oyib bo'ldi-qoldi.

Qayerga ketdi? Nima uchun?

Nima bo'layotganiga tushunolmay, gangigancha xonamga derazadan oshib tushdim. U hadya qilgan gulga qaradim. Bu doim ochilib, atrofqa xushbo'y hid taratib turadigan na'matak g'unchasing shoxchasi ekan. To'satdan g'unchaning yurak shaklida ekanini payqab qoldim. Xuddi qushchaning nihoyatda kichkina va titrayotgan yurakchasiga o'xshardi.

Lekin buni hadya qilganda uning ham yuragi titraganmikin?

Bir kuni kechki payt o'rtog'im bilan boqqa konsertga bordik. U bilan ko'pchilikdan narida odamlarga qo'shilishni istamaydigan ayrim xayolparastlar o'tiradigan qorong'i "ovloq" xiyobonda sayr qilib yurardik. Ochiq maydondag'i to'p-to'p odamlarning g'ala-g'ovuri avjida, u yerda mushaklar otilib atrofqa yog'du sochadi: favvoralar osmonni rang-barang bezak va aylana uchqunli yoylarga to'ldirib tashlagan.

Nogahon ko'kragimdan o'q yegandek turgan joyimda qotib qoldim: qiz zarang daraxtining soyasida boshini qo'llari orasiga olgancha, nigohini yerga tikib turardi. Ko'rinishdan g'amgin va xafa. Bugun qo'lida na gul, chehrasida na tabassum bor edi. Meni ko'rgan bo'lsa-da, loaqal qiyo boqqani yo'q. Nima bo'ldi ekan-a?

Hamrohimni qoldirib, asta uning yoniga bordim.

Nega xafasiz?

Nega endi xursand bo'lay...

Boshingizga biror kulfat tushdimi?

U lablarini bilinar-bilinmas qimtib qo'ydi.

- Yo'g'-e, shundoq, yolg'izlikdan zerikdim.

E-ha, shuning uchun deng?

Ha, shuning uchun...

Hamrohlikka taklif qilish esimga kelmaganligi uchun undan uzr so'radim. Biroq u qandaydir noaniq ajib harakat-la menga shunday qaradiki... Qanday deysizmi? Toshni ham teshib yuborardi uning qarashlari.

Seskanib ketdim. Taklifimga zor emasligi shundoqqina aftidan sezilib turardi. Bu yerda o'zimni ortiqcha sezsa boshladim. Ortiq yalinishga g'ururim yo'l bermay, endi ketishga chog'langan ham edimki, qo'qqisdan:

Men bergen gullar hali ham turibdimi? deb so'rab qoldi.

Shu ondayoq unga qaytadan mehrim tovlanib:

Ha! Bilasizmi, ularni avaylab, shunday sevib, ardoqlayman-ki! dedim.

Gullarnimi?

Ha, gullarni.

Faqat gullarnimi, a? Sizni qarang-u!

Men uning o'pkalaganini aniq bildim.

Biz yana xuddi begonalardek jum qoldik.

Tun yarmidan oqqandi. Skripkachilar so'nggi avjni olmoqda edilar. Sochlari hurpaygan dirijyor qo'lidagi cho'p bilan boshi uzra yarim yoy hosil qilar, avjga chiqishini ko'rsatar edi.

Atrofda hech zog' ko'rinnmasdi.

To'satdan qiz yana:

Sizning mayin jingalak sochlaringiz bor edi. Nega oldirdingiz? deb so'rab qoldi.

Chindanam sochlaramni qirtishlab oldirib tashlagan edim.

Sizga sochlaram yoqarmidi?

Judayam. O'shanda menga yoqardingiz...

Endi-chi, yoqmaymanmi?

Yoqmaysiz...

Nachora...

Xuddi bir-birimizdan qo'rqqandek, qo'l ham berishmay ikki tarafga ajralishib ketdik.

Bir oz uzoqlashgach, uning ortidan hurpaygan jingalak sochlarnigina seuvuchi ayolga qaragandek uzoq tikilib qoldim...

Osmonda shafaq uchqunladi. Balki qiz ham yelkalarini qisgancha faqat gullarnigina sevib, uni ardoqlaydigan yosh yigitni eslagonadir.

Ko'p o'tmay men boshqa yerga jo'nab ketdim. Bizning yo'limiz tezda tutashmadni. Oxiri bir kun tutashganda so'zsiz tushundikki: o'sha tongotar paytda ikkimiz bir-birimizni aldab, shafqatsizlarcha yolg'on gapirgan ekanmiz.

Shu vajdan bir-birimizni ko'rmagandek indamay o'tib ketaverdik. Bizni bir-birimizdan bema'ni g'urur - qalbni bir umr jarohatlaydigan takabburlik judo qilgandi.